

## 7 usul orqali testlarni to'g'ri ishlashni o'rganing

Imtihonlarga oz muddat qolmoqda. Imtihon asosan 4 variantli test ko'rinishida bo'lishini hisobga olib, sizlarni shu turdagi testlarni to'g'ri ishlash usullari bilan tanishtirib o'tamiz.

**1. Testdagi savol va savol sharti bilan yaxshilab tanishing.**  
Savoldan tashqari, savolning qo'shimcha sharti bo'lishi mumkin. Savolning shartiga yaxshilab e'tibor bering. Javob variantlarga to'g'ridan-to'g'ri sakramasdan, sharti bilan yaxshilab tanishing. Savolning biron chalg'ituvchi shartlari bo'lishi mumkin.

**2. Avvaliga oson savollarga javob bering.**  
1-qadamdan so'ng, oson savollarga javob berib chiqing. Bu sizga imtihonning savollari, formati va qiyinchiligi bilan tanishib chiqish imkonini beradi. Eng muhimi esa test boshlanishi bilanoq bir qancha savollarga to'g'ri javob berishingiz, o'zingizga ishonchni keskin oshiradi.

**3. Javoblarni xayolda topishga harakat qiling.**  
Savolni o'qing va javob variantlarini qo'lingiz yoki bir parcha qog'oz bilan berkitib, xayolingizda eng yaxshi javob nima bo'lishi mumkinligini o'ylang. O'xshash variantlar odatda chalg'itib yuboradi. Oldindan o'ylab olsangiz, shunday chalg'itib qolishdan saqlanasiz.

**4. Har bir javob variantini o'qing.**  
Hamma variantlarni o'qing. Javob to'g'ri ko'rinishi mumkin, lekin siz topgan javobdan ham to'liqroq va aniqroq javobni tashlab ketayotgan bo'lishingiz mumkin.

**5. "Chiqarib tashlash" usulidan foydalaning.**  
Agar savol sizga qiyin tuyulsa va to'g'ri javobni bilmasangiz, noto'g'riligi aniq bo'lgan javoblarni ustidan ruchkada chizib tashlang. Qolgan variantlar orasidan javobni belgilashingiz, to'g'ri javobni topishingiz ehtimoligini oshiradi.

**6. "Barcha javoblar to'g'ri" shaklidagi savollar**  
Aytaylik, "barcha javoblar to'g'ri" degan javob varianti bor. 2 ta javob to'g'riligini bilsangiz, "barcha javoblar to'g'ri" degan variantni tanlayvering.

**7. Har bir savolga javob bering.**  
DTM tizimida noto'g'ri javoblarga jarima berilmaydi, ya'ni noto'g'ri javob uchun ball ayirib tashlanmaydi. Shunday ekan, barcha savollarga javoblarni belgilang. To'g'ri javoblarni topish ehtimolingiz oshadi.

## ONA TILI VA ADABIYOTI

1. Qaysi gap tarkibida o'z paronimi bilan o'zaro bir xil turkumga mansub bo'la oladigan tub so'z qatnashgan?  
A) Yovga chiqsang, yarog'li chiq,  
Yolg'iz chiqma, hamrohli chiq.  
B) Yangi ariqdan bo'z yerlarga suv haydaldi.  
C) Hiylakor dushman lashkari mahv etildi.  
D) Amirning oshidan kambag'alning mushti yaxshi.
2. Romen Rollanning "Jan Kristof" asari necha jildlik roman sanaladi?  
A) 10 jildlik B) 8 jildlik  
C) 5 jildlik D) 7 jildlik
3. Ikki kundosh g'aznavonlardan to'rt qop tilla. olib, mastonga beradi va u bilan til biriktirib, fitna-g'iybat qilib, mamlakatni buzib, qancha sargardonlikka sabab bo'ladi.  
Ushbu voqealar xalq dostonlaridan qaysi birida ifoda etiladi?  
A) "Rustamxon" B) "Ravshan"  
C) "Alpomish" D) "Kuntug'mish"
4. "Samanni chavondozi boshqaradi, bu arg'umoqning esa chavondozi, egar-yugani yo'q, yaydoq, bir o'zi, boshi og'gan tomonga chopadi, oyog'i tashlangan yerga

tushadi, u birovni mindirish u yoqda tursin, yoniga yo'latmaydi".

Ushbu arg'umoq nima va u qaysi asardan olingan?

- A) Vaqt, "Tanho qayiq" dramasida
- B) Vaqt, "Ulug' saltanat" romanida
- C) Vaqt, "Abulfayzxon" daramasida
- D) Baxt, "Abufayzxon" dramasida

5. Daraja-miqdor ravishi qo'shma fe'lga ergashib kelgan gapni aniqlang.  
A) Tong yaqinlashib qolyapti, bu yerdan tez ketishimiz kerak.  
B) To'lagan aka zo'rg'a kelgan ekan.  
C) Xadicha xola xiyla o'ylanib turdi.  
D) U O'rmonjonga, Bo'taboyga, Kanizakka ko'pdan ko'p salom aytdi.
6. ... Ajam va Arabda hukm surayotgan shohning sovchilarini rad etadi. Undagi turkiy qavm ayollariga xos eng baland ma'naviy fazilatlar kishini maftun etadi. Uning uchun martaba, boylik, hashamat kabi o'tkinchi dunyo matohlarining hech qadri yo'q.  
"Manga ne yor-u ne oshiq havasdur,  
Agar men odam o'lsam, ushbu basdur!" so'zlari uning hayotdagi shiori edi.  
Ushbu ma'lumot Navoiy "Xamsa" sidagi qaysi doston qahramoni haqida?  
A) "Layli va Majnun" B) "Farhod va Shirin"  
C) "Saddi Iskandariy" D) "Sab'ayi sayyor"
7. Qaysi javobda hisob so'z qatnashmagan gaplar to'g'ri ko'rsatilgan?  
1. Qizcha qo'lida ko'tarib ketayotgan uchta piyolani sindirib qo'ydi.  
2. Bemor zo'rg'a ikki qoshiqqina ovqat yedi.  
3. Qishloqqacha hali qariyb bir kilometr yurish kerak edi.  
4. Ikki hafta davomida dalaga chiqa olmadi.  
5. Onaxon nabiralariga ikkitadan ko'ylak sotib oldi.  
A) 2, 3 B) 1, 5 C) 3, 4, 5 D) 1, 2, 4, 5
8. Berilgan qaysi g'azallarda Sulaymon payg'ambar nomi keltirilib, talmeh san'ati yaratilgan?  
A) Ogahiyning "Ustina" radifli g'azali va Navoiyning "Qilg'il" radifli g'azalida  
B) Nodiraning "Vasl uyin obod etdim, buzdi hijron oqibat" va "Kel, dahrni imtihon etib ket" matla'li g'azallarida  
C) Ogahiyning "Ustina" radifli g'azali va Nodiraning "Kel, dahrni imtihon etib ket" matla'li g'azalida  
D) Ogahiyning "Ustina" radifli g'azali va Nodiraning "Vasl uyin obod etdim, buzdi hijron oqibat" matla'li g'azalida
9. Qaysi javobda tirening tushirib qoldirilishi bilan bog'liq xatolik kuzatilmaydi?  
A) Mening akam ham shifokor.  
B) Har narsaga qiziqish biz uchun eski odat.  
C) Hosilning otasi suv, onasi yer.  
D) Yaxshi qiz uy obro'si.
10. Zamaxshariy ko'p qirrali olimdir, u fanning turli sohalariga oid 75 dan ortiq asar yozib qoldirgan. Sifatlar haqida berilgan noto'g'ri hukmni toping.  
A) sifatlar faqat ot turkumiga bog'lanib kelgan  
B) yasama sifat bog'langan to'ldiruvchiga qaratqich

- aniqlovchi ham bog'langan  
C) 3 ta sifat otdan yasalgan  
D) sifatlar kesim va to'ldiruvchiga bog'lanib kelgan

11. Qaysi javobdagi barcha fe'llar kelasi zamondagi fe'llar sanaladi?  
A) Nido bergil, qaydasan, sharpangga quloq tutdim, Sirli tushlar ko'rib men bar dunyoni unutdim.  
B) Necha kunlar o'tdi, lekin so'rmading holimni' bir, Oxirida hol so'rab kelsang magar, ketmoqdaman.  
C) Men ham sal shoshdim-da, qaytaymi endi, Kechagi yoshligim ertakmi endi?  
D) Ista, qismatimga o'zing ber barham, Ista, yaxshi kunda nomim qilgil yod.
12. Qaysi javobdagi aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap tarkibida ikki o'rinda fonetik o'zgarish yuz bergan?  
A) Kim ko'zguga ko'p qarasa, xotirasi susayib ketarkan.  
B) Kimki nuqul o'tmishidan nolisa uning kelajagi ham barbod bo'ladi.  
C) Kimki oilani muqaddas bilmasa, uning uchun muqaddas narsaning o'zi yo'q.  
D) Odam qancha ko'p bilsa, yashashi shuncha qiyinlashadi.
13. Bitishuv munosabatli so'z birikmalari ishtirok etgan javobni aniqlang.  
A) Yelkamizga oftobning tegganligi rost bo'lsin, O'zbekning o'z niholin ekkanligi rost bo'lsin.  
B) Qalbimning parchasi singmasa agar, Rozimasman, birov hadya etsa zar.  
C) Birin-ketin o'tib borar asrlarning karvonlari, Oh nechog'lik xatarlidir uning oshar dovonlari.  
D) Qovushmasa insof, ezgulik, sabot, Men buning sababin bilmasman, hayhot!
14. Qaysi gapda vositali to'ldiruvchi va qaratqich aniqlovchi otlashgan sifat bilan ifodalangan?  
A) Toqatliga tog'lar egar boshini, Toqatsizning birovlar yer oshini.  
B) Donolar bilan kengashib ish qilgan odam hech qachon adashmaydi.  
C) Maqtanganning uyiga bor, Kerilganning – to'yiga.  
D) Yaxshini maqtasang yarashur, Yomonni maqtagan adashur.
15. Qaysi gapda yasama sifatdan yasalgan ot qatnashgan?  
A) Kuz kelib, harorat pasaydi.  
B) Yoshlardan yurak jo'shqinligi, qalb qo'ri, bilak kuchi, yoshlik g'ayrati, aql-idrok talab qilinadi.  
C) Reklama uchun ajratilgan mablag'ni qisqartirib qo'ygani yaxshi bo'lmadi.  
D) Qo'zg'olonchilar katta suron bilan ilgari otilib, Toshbo'ronni kuchaytirdilar.
16. "Man alarning kattasidurman. Ulug'lar, raiyasiga base mehribon bo'lur. Balog'a o'zlarini ro'baro' qilib, kichiklarni xalos qilsa yaxshidur"  
Ushbu so'zlar qaysi qahramonga tegishli?  
A) "Uzum hikoyati", Nuh alayhissalom  
B) "Sulaymon va chumoli hikoyati", Manzara  
C) "Ilon va qarlug'och hikoyati", qaldirg'och  
D) "Qutadg'u bilig", Kuntug'di
17. Qaysi javobda Odil Yoqubovning romanlari berilgan?

- A) "Qanot juft bo'ladi", "Oqqushlar, oppoq qushlar"  
B) "Adolat manzili", "Er boshiga ish tushsa"  
C) "Osiy banda", "Qaydasan, Moriko"  
D) "Ko'hna dunyo", "Tengdoshlar"

18. Qaysi javobdagi barcha so'zlar imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan?  
A) taziya, tamirlamoq, ma'yus  
B) sun'iy, me'yor, mas'ul  
C) tasirlanmoq, ta'kidlamoq, mash'um  
D) taminlamoq, ta'qiqlamoq, meyor
19. Shuni unutmangki, kitob bolani ham aqlan, ham ma'nan boyitadi, uni shaxs sifatida shakllantiradi, u bolaning hayotdagi eng yaqin tarbiyachisi, do'sti sanaladi.  
Ushbu gapdagi fe'l kesimlar haqida bildirilgan to'g'ri fikrni toping.  
A) Ushbu gapda qatnashgan fe'l kesimlar buyruq-istak maylidagi va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalangan.  
B) Ushbu gapda qatnashgan fe'l kesimlarning barchasi o'zaro bir xil nisbat ma'nosini ifodalagan.  
C) Ushbu gapda qatnashgan fe'l kesimlarning barchasi yasama so'z bilan ifodalangan.  
D) Ushbu gapda sodda va murakkab fe'l kesimlar qatnashgan.
20. Turli hajmda kattalashtirib ko'rsatadigan ikki tomoni qabariq oynaga mikroskop deyiladi, bu jihozdan olimlar unumli foydalangan va fanda juda ko'p yutuqlarga erishgan.  
Ushbu gapda qatnashgan fe'l nisbatlari haqidagi to'g'ri fikrni toping.  
A) Ushbu gapda aniq nisbatdagi fe'l aniqlovchi vazifasini bajargan.  
B) Ushbu gapda hol vazifasini bajargan fe'l tarkibida nibat qo'shimchasi qatnashmagan.  
C) Ushbu gapda orttirma nisbat qo'shimchasi ta'sirida o'timsiz fe'lning o'timli fe'lga aylanishi kuzatiladi.  
D) Ushbu gapdagi barcha kesimlar tarkibida fe'l nisbati qo'shimchasi qatnashgan.
21. na inkor bog'lovchisi qaysi javobda uyushgan bo'laklarni bog'lamagan?  
A) Bu ishingdan na menga, na boshqalarga manfaat bor.  
B) Unga na bir gap yoqadi, na bir ish yoqadi.  
C) Ilmsiz odam yog'och kabidir: undan na o'ziga, na xalqiga foyda bor.  
D) Yalqov va besabr bo'lma, u senga na obro', na baxt keltiradi.
22. Biz – yoshlar – yurtimiz kelajagimiz.  
Ushbu gap haqida berilgan to'g'ri hukmlarni toping.  
1) gapda ajratilgan bo'lak qatnashgan;  
2) gapda uyushiq bo'lak qatnashgan;  
3) qaratqich aniqlovchi kesimga tobelangan;  
4) aniqlovchi va kesim tarkibida o'zaro shakldosh qo'shimchalar ishtirok etgan;  
5) aniqlovchi va kesim tarkibida egalik qo'shimchasi qatnashgan  
A) 1, 3, 5    B) 1, 3, 4  
C) 1, 3, 4, 5    D) 2, 3, 4
23. O'tgan ajdodlarimiz bizni shu aziz xalqimizni astoydil sevishga, unga fidokorlik bilan xizmat qilishga, uning qadriyatlarini hurmat qilishga o'rgatishgan.

Ushbu gap haqidagi qaysi fikr to'g'ri emas?

- A) Olmosh bilan ifodalangan qaratqich aniqlovchining kesimga bilvosita tobelanishi kuzatiladi.
- B) Ot bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchilarning kesimga bevosita tobelanishi kuzatiladi.
- C) Olmosh bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchining kesimga bevosita tobelanishi kuzatiladi.
- D) Olmosh bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchining kesimga bilvosita tobelanishi kuzatiladi.

24. Quyidagilardan qaysi birining yetakchi morfemasi omonimlik xususiyatiga ega?

- 1) bormoq; 2) chopmoq; 3) savalamoq;
- 4) ivitmoq; 5) changimoq
- A) 1, 3, 5    B) 1, 2, 3, 4, 5
- C) 1, 3, 4    D) 1, 2, 4, 5

25. O'tkir Hoshimov qalamiga mansub asar nomi keltirilmagan javobni aniqlang.

- A) "Bahor qaytmaydi"    B) "Ikki eshik orasi"
- C) "Dunyoning ishlari"    D) "Oltin zanglamas"

26. Quyidagi gapda yasama so'zlar soni nechta? Hamdardlik bir odamning qayg'u-hasratlariga achinib, o'zida ham qayg'u hosil qilishidir, lekin quruq va yuzaki hamdardlikning foydasi yo'q.

- A) 2 ta    B) 4 ta    C) 3 ta    D) 5 ta

27. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida Nizomiddin Xomush kimga "Yodingda bo'lsin!... Hamd-u sanoni esidan chiqarib, kofirlikka yuz tutgan barcha allomalarning holi shu bo'lar!" deya ta'kidlaydi?

- A) Muhiddinga    B) Ali Qushchiga
- C) Mirzo Ulug'bekka    D) Miram Chalabiyga

28. Vatan ozodligi, uning farzandlari hurligi, erkinligini himoya qilish hammamizning vazifamizdir. Ushbu gapdagi yasama so'zlar haqidagi noto'g'ri fikrni toping.

- A) Kompozitsiya usulida va affiksatsiya usulida yasalgan yasama so'zlar qatnashgan.
- B) Gapda sodda yasama so'zlarning kesimga bilvosita tobelanishi kuzatiladi.
- C) Sodda yasama so'zlar fonetik o'zgarish asosida yozilgan.
- D) Sodda yasama so'zlar har xil so'z turkumiga mansub.

### Matnni o'qing va ushbu matn asosida berilgan ikkita topshiriqni bajaring 89-90.

#### Qushcha

1. Bir ko'lda oqqushlar galasi yashardi. Kuz yaqinlashib, janubga uchadigan bo'lishdi. Safarga tayyorlanayotgan paytlarida kichkina bir bechora qushcha uchib keldi va dedi:

- Ming afsus! Sizlar janubga ketasizlar, men bo'lsam mana shu yerlarda muzlab o'lishka majburman.

- Qayg'uga botma, - deyishdi oqqushlar, seni o'zimiz bilan birga olib ketamiz.

2. - Ming afsus, - dedi g'arib qushcha, - sizlarda ulkan tumshuqlar bor, oziqning oson topasizlar. Men och qolib ketaman.

- Yo'lda senga ovqat beramiz, - deb uni tanchlantirishdi katta qushlar.

- Ming afsus! Sizlarning qanotlaringiz katta, men yo'lda charchab qolaman, - deb tashvishga tushdi mayda qushcha.

- Charchaydigan bo'lsang, seni mingashtirib olamiz, - deb taskin berishdi oqqushlar.

3. - Ming afsus... - deb qushcha yana so'z boshlagan edi, oqqushlar uning so'zini bo'lib qo'yishdi.

- Bor-e, - deyishdi ular. Keyin uning ming'irlashlariga quloq solmay janubga qarab uchib ketishdi.

29. "Qushcha" nomli ushbu matnning 1- va 2- bandlarida ro'y bergan xatoliklar turi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) 1- imloviy xatolik; 2 – imloviy xatolik
- B) 1 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik; 2 – imloviy xatolik
- C) 1 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik; 2 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik
- D) 1 – imloviy xatolik; 2 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik

30. "Qushcha" nomli ushbu matnning umumiy mamunidan kelib chiqib, xato shakllantirilgan gapni aniqlang.

A) Ushbu matndagi qushcha o'ziga ishonchi bo'lmagan odamlar timsoli

B) Ushbu matndagi qushcha biror ishga urinib ko'rmasdan doim nolib yuradigan odamlar timsoli

C) Ushbu matndagi qushcha o'zi o'ylab topadigan turli bahonalar tufayli hech bir ishga kirisha olmaydigan odamlar timsoli

D) Ushbu matndagi qushcha bir ishni qilishdan oldin obdon o'ylab ko'radigan, birovlariga ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydigan ehtiyotkor odam timsoli